

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi

IV-bosqich talabasi

Doniyorova Maftuna Madraximovnaning

MAVZU: umumta'lim maktablarining 6-sinflarida «yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o`qitish metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: dots. Yu. B. Raxmatov

Navoiy-2013 y.

**Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida «Yevrosiyo
materigining iqlimi» mavzusini o'qitish metodikasi.**

Mundarija:

KIRISH.

I.Bob. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusining dolzarbligi va maktab geografiya ta'limida tutgan o'rni.

1.1. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o'rni va ahamiyati.

1.2. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitishning maqsadlari va vazifalari.

A) Ta'limiy

B) Tarbiyaviy

V) Rivojlantiruvchi.

G) Milliy istiqlol g'oyasini singdirish.

ASOSIY QISM.

II.Bob. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitish metodlari.

2.1. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitish metodlari.

2.2. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash.

2.3. «Yevrosiyo materigining iqlimi»ga umumiy ta'rifi.

2.4 Darsni mustahmamlash, rivojlantirish va uyga topshiriq berish.

III.Bob.

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish.

**Xamisha yaragil xalq xizmatiga
Bezak bo'l, olamu, odam zotiga.
Nizomiy Ganjaviy.**

Respublikamiz ravnaqi maktabga, akademik lisiy va kasb-hunar kollejga, hamda unda davrimizga munosib yangi insonning qanday ta'lim va tarbiya olayotganligiga bog'lik ekanligini xayot ko'rsatib turadi. Hozirda maktablarimiz, akademik litsey va kasb-hunar kollejarimiz oldidagi eng dolzarb vazifa yurtimiz kelajagi uchun ma'lumotli, yuksak e'tiqodli, o'z Vataniga sadoqatli insonni tarbiyalashdir. Chunki ular demokratiya asosida tuzilgan mustaqil yurtda, jamoalarning xo'jalik mustaqilligi sharoitida o'zi va yurti uchun o'sib borayotgan tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy bilimlarning javobgarligini xis qilgan xolda faol, izlanuvchan, yashay va ishlay oladigan bo'lishlari lozim. Bu esa avvalo o'qituvchilardan yuksak mahorat talab qiladi.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimiga ham keng qamrovli islohotlar chuqur kirib bormoqda. Bu islohotlardan kuzda tutilgan maqsad ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish mazmunini yaxshilash, pirovard natijada uni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy rivojlanishiga xizmat qildirishdan iboratdir.

«Ta'lim to'qrisida»gi qonunning 26-moddasida ta'limni ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga joriy etilsin,- deyilgan bo'lsa, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim berishning ilg'or texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va ta'lim jarayonini didaktik jihatdan ko'rgazmali ta'minlash talab etiladi.

Ta'limni yangi pedagogik texnologiyalar asosida didaktik loyihalash inson ongining antitsipirik-oldindan payqash, ko'ra bilish qobiliyati bilan dahldor. Ta'limni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib didaktik loyiha asosida bajarishda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati yotadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limda eng zamonaviy hisoblangan pedagogik texnologiyalarni qo'llashga va mukammal o'rganishga erishish masalalariga hamda inson omiliga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning negizida «tizimli yondashuv» yotadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda.

Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi.

Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq umumiy o'rta ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o'z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta'limi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o'qitish borasida milliy dasturda qo'yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda.

Bularning barchasi geografiya fani o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o'z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o'qituvchilarning

tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakali ishimda umumta'lim maktablarining 6- sinflari Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanida berilgan mavzularni o'rganish, ya'ni eng katta materik "Yevrosiyo materigining iqlimi" mavzusini o'qitishda geografiya ta'limida qo'llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o'zlashtirilgan ko'nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o'qishda qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar, kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo'llarini yoritishga harakat qildim.

Mavzuni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to'plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

"Yevrosiyo materigining iqlimi"ni mavzusini o'rganishda materiklarning tabiiy geografik xususiyatlarining o'zgarish sabablarini, iqlimning o'ziga xos jihatlarini taqqoslash asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografiya fanining maqsadi va vazifalariga hamda mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy tabiiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografiya mehnat taqsimoti tushunchasini ahamiyatiga to'xtalib, bu tushunchaning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, uning tabiiy-iqtisodiy nazariyasi boshqa tabiiy-iqtisodiy fanlar bilan bog'lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan.

Bu tushuncha mavzusini o'rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, shaharlar, rayonlar, o'lkalar tabiatini hamda xo'jaligini o'rganishda materiklar o'rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik mehnat taqsimoti tushunchasi o'quvchilar bilimini ma'lum bir tizimga solishda, uning yordamida boshqa iqtisodiy geografik tushunchalarning shakllanishi ancha engillashadi.

Yevrosiyo materigining iqlimiy xususiyatlari mavzusida tabiiy geografik tushunchasi komponentlar misolida har bir komponent xususiyatlari va joylashishi chuqur o'rganiladi.

Ayniqsa, komponentlarning tabiiy kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar hududiy komplekslarini va komponentlar geografiyasidagi tabiiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega. "Yevrosiyo materigining iqlimi" mavzusini o'rganishning asosiy joylaridan biri mamlakatlar geografiyasi hisoblanadi.

"Yevrosiyo materigining iqlimiy" mavzusini o'rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, komponentlarning o'zaro aloqalari yetakchi o'rin egallaydi. Bundan tashqari Yevrosiyo materigining tabiiy xususiyatlari, kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Bu materiallar darslikdan materiallarni to'ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o'taydi.

Umumiy holda aytadigan bo'lsak, umumta'lim maktablarining 6-sinfida o'tiladigan materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi "Yevrosiyo materigining iqlimi" mavzusini o'rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g'oyalarini jamlagan holda o'rganildi. Chunki bilim ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo'lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi.

Ko'nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Bu iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida o'tiladigan "Yevrosiyo materigining iqlimi" mavzusini o'rganishda o'quvchilar o'z fikr va muloxazalarini amalda bajarishga intiladilar.

Yevrosiyo materigining iqlimi qo'shni materiklar orasida tutgan o'rni, ular bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to'ldirish orqali o'quvchilarda geografik ko'nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan geografiya kafedrası professor-o'qituvchilariga o'zimni minnatdorchiligimni bildiraman. Bitiruv ishimni kelgusida umumta'lim maktablarining 6-sinfida materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanidan o'tiladigan mavzularida foydalanishga xarakat qilaman.

1.BOB. «YEVROSIYO MATERIGINING IQLIMI» MAVZUSINING MAKTAB GEOGRAFIYA TALIMIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI.

Maktab geografiya ta'limida «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusiga «Umumiy o'rta» ta'limning «Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi»ga muvofiq 3 soat dars ajratilgan. Bu mavzuni o'zlashtirishdan ilgari o'quvchilar 6-sinf «Matyeriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi»kursida geografik qobiq, uning xususiyatlari, litosfyera, gidrosfyera, atmosfer, biosfyera qobiqlari to'g'risida, Afrika, Antraktida, Shimoliy va janubiy Amerika matyeriklarining geografik o'rni, tekshirilish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalari haqida Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy muz okeanlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lganlar. Bu bilim va ko'nikmalar yer yuzasi tabiati, xo'jaligi xususida o'quvchilar dunyoqarashining shakllanishiga olib keladi. 5-sinf umumta'lim maktablarida dastlab «Tabiiy geogryafiya» so'ngra 6-sinf umumta'lim maktablarida «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» o'tiladi. O'quvchilar «Yevrosiyo materiginingiqlimi» mavzusini o'tgunlariga qadar Materiklar va okeanlar tabiatining asosiy hususiyatlari va boshqa materiklarninggeografik o'rni va tekshirilish tarixi, chegaralari, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, rel'yefi, iqlimi, ichki suvlari kabi mavzularini o'tishgan bo'lishlari shart. Bu mavzular orqali ular Yevrosiyo materigining iqlimi, iqlim hususiyatlarihududda qay darajada o'rganilganlining, iqlim hususiyatlariga ta'sir qiluvchi omillar, iqlim hususiyatlarining davrlar bo'yicha rivojlanishi, tadqiqotchi va sayohatchilarning materik hududlari bo'yicha olib borogan tekrihishlari natijasida iqlim hususiyatlari o'zgarishi xususida tushunchaga ega bo'ladilar. Bu yangi mavzuni o'zlashtirish uchuno'quvchilar ongida etarligicha zamin hozirlangan bo'ladi.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o'rni va ahamiyati quyidagilardan iborat.

-O'quvchilarda Yevrosiyo materigining iqlimi: hududning materiklar orasida joylashgan o'rni, joylashgan kordinatalari, hududni o'rgangan tadqiqotchi olimlar va sayohatchilarning qilgan kashfiyotlari natijasida iqlim hususiyatlari o'zgarishi xususida, ular tomonidan kashf qilingan pasttekisliklar, tekisliklar, platolar, qirlar, to'g'lar, to'g' tugunlaridagi iqlim hususiyatlarining hosil bo'lishi haqidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytiradi va ularni to'ldiradi.

-Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusini o'rganish orqali o'quvchilar hududning materiklar orasida joylashganligi, qaysi davrlarda materikni o'rgangan tadqiqotchilar haqidagi bilimlarga hamda geografik zona, geografik proviinsiya, geografik oblast, geografik rayon, landshaft tushunchalarni o'zlashtiradilar.

-Yevrosiyo materigidagi joylashgan iqlim hususiyatlarning geografik o'rni va ularning turlari, joylashgan rayonlari va ularni kashf qilgan olimlar xususida bilimlarga ega bo'ladilar.

Bu bilimlar o'quvchilarning geografik o'rni, tekshirilish tarixi, iqlimi, tabiiy geografik hususiyatlari to'g'risidagi, unda ro'y beradigan tabiiy geografik hodisalar to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarini kengaytiradi. Bu mavzu orqali o'quvchilar Evrosiyo materigining geografik o'rni, tekshirilish tarixi, iqlimi, iqlim hususiyatlari juda murakkab ekanligini, bu hudud turli davrlarda kashf qilinganli, turli geologik davrda iqlim hususiyatlarining shakllanganligi, hududning iqlim hususiyatlariga boy ekanligini o'rganadilar. Mavzu o'quvchilar xotirasida hududning geografik o'rni va tekshirilish tarixi, turli geologik davrlardagi iqlim hususiyatlarni o'zgarishlarini, iqlim mintaqalaridagi to'g' jinslarining elementlari, ularning yotish holatlari va rivojlangan davrlari, qazilma boyliklarining turlari, neft va gaz havzalarini, ko'mir, oltin, uran,

mis, ko'rg'oshin, qalay, oltingugurt, simob, surma kabi qazilma boylik tushunchalarning tiklanishiga va rivojlanishiga olib keladi. O'quvchilar bevosita mavzu doirasida Yevrosiyo materigining iqlim hususiyatlari orqali xududning geografik o'rne va tekshirilish tarixini, hududning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari: baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlarini, bu davrlarda hosil bo'lgan to'g'` jinslarini, ularning yotish holatlarini, zilzilalar va ularning ro'y bergan rayonlari va davrlari, yirik foydali qazilmalar konlari, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi ya'ni Afrika, Antraktida, shimoliy va janubiy Amyerika matyeriklarining, Markaziy Qozog'iston, Tyanshan, Pomir, Markaziy Qizilqum va boshqa hududlardagi iqlim mintaqalar, ko'llar, haqida ma'lumotga ega bo'lib, shu to'g'`risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Yevrosiyo materigining iqlim hususiyatlari orqali o'lkaning geografik o'rne va tekshirilish tarixining, iqlim mintaqalarining o'ziga xos jihatlarini o'quvchilar mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'rganadilar. Xudud maydonining 26 foizini egallagan tekisliklar zonasidagi iqlim hususiyatlarda joylashgan foydali qazilmalarning qanchalik ko'pligi sabablarini tushunadilar. Mavzuni o'rganish orqali Yevrosiyo materigidagi iqlim mintaqalaridagi foydali qazilmalarning vujudga kelishi va rivojlanishi, taraqqiyoti xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar haqidagi ma'lumotlari kengayadi. Bu Yevrosiyo materigi iqlim hususiyatlari to'g'`risidagi bilimlarning mukammallashuviga olib keladi.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini yaxshi o'zlashtirish kelajakda o'tiladigan geografik o'rne va tekshirilish tarixi, rel'fi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari mavzulari oson o'rganilishini ta'minlaydi.

Bu mavzuni o'rganish o'quvchilarga materikning iqlim hususiyatlarni, tabiatni, atrof-muhitni, foydali qazilma resurslarini ifloslanishdan saqlash, iqlim

mintaqalaridan umumli foydalanish, har qanday iqlim resurs boyligining inson hayotida muhim o`rin tutishini anglashlariga ko`mak beradi.

«YEVROSIYO MATERIGINING IQLIMI» MAVZUNI O`QITISHNING MAQSADLARI VA VAZIFALARI.

A) Ta'limiy maqsadi:

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o`rganish jarayonida o`quvchilarda quyidagi bilim va ko`nikmalar hosil bo`ladi. O`quvchilarga Yevrosiyo materigining geografiko`rnivaunio`raborturganokeanlarnin giqlimhosilbo`lishigata`sirihaqidama`limotberish. «Yevrosiyo

materiginingiqlimi»

mavzusini o`rganish orqali o`tilgan mavzular bo`yicha o`quvchilar bilimini sinash.

O`quvchilarning materik bo`yicha olgan bilimlarini yanada mustahkamlash.

- Yevrosiyo materigining iqlim xususiyatlari materik tabiatining bir butun iqlim xususiyatlarga hos ekanligini o`rganish.
- Geografik o`rin jihatdan tuzilishining materik iqlim xususiyatlariga, relyef va ichki suvlari tuzilishiga xos ravishda juda notekis joylashganligini tushuntiradi.
- Yevrosiyo materigining o`rganilish tarixi, iqlim xususiyatlari taraqqiyotining bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali geografik o`rin va tekshirilish tarixi, tabiatining va foydali qazilmalar tizimining inson tomonidan o`zgartirilganligi va uning geografik hamda ekologik oqibatlarini, tadbirlari xususida o`quvchilar ongida tushuncha hosil qilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosining hosil bo`lishiga ko`ra turlari va ularning hududda taqsimlashda o`ziga xos xususiyatlarni ajratish.

- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali iqlim xususiyatlaridan xalq xo'jaligida foydalanish va ularda ro'y berayotgan antropogen o'zgarishlar to'g'risida tushunchaga ega bo'lish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali hududlarda baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlari natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini xo'jalik maqsadlariga ko'ra turlarini ajratish. Ularning atrof-muhit ekologik vaziyatiga ta'sirini chuqur anglay bilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali iqlim xususiyatlari rivojlanishining tarkib topish sharoiti va ularning turlari: ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini va ularning atrof- muhit ekologik holatiga ta'sirini o'rganish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali georafik o'rin va tekshirilish tarixi, geologik sana, to'g' jinslarining turlarini, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini bilish.

B) Tarbiyaviy maqsadi:

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitishda har bir o'quvchi qalbida vatanga, tabiatga muhabbat, uning tabiiy boyliklarini kadrlash va asrab avaylash, kelajak avlodlarning musaffo tabiat qo'ynida yayrab ulg'ayishi, toza suv manbalaridan bahramant bo'lish tuyg'ulari kamol topadi. O'quvchilarni o'zaro bir-biriga yaqinlashtirish, mustaqil va ijodiy ishlash, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish. Tabiiy-iqtisodiy va ekologik tarbiya berish. Buyuk vatandoshimiz al-Farg'oniyni xizmatlari haqida gapirib, insonparvarlik ruhida tarbiyalash. O'quvchilarni darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlar, internet ma'lumotlaridan o'rinli foydalanish, ularni o'z maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash; ularga jamoa bo'lib ishlash, o'zaro

yordam va berilgan vazifani bajarishda mas'uliyatni his qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Buyuk pedagogik olim mumtoz shoirimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyangan muqaddas bir vazifadur".

Shunday ekan, mohir o'qituvchi, murabbiyning vazifasi o'quvchiga dars jarayonida faqat nazariy ilmiy masalalarni o'rgatishdan iboratgina bo'lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi, didi va saloxiyatini ham shakllantirish, har bir insonni erkin fikrlaydi degan etuk shaxs bo'lib tarbiyalashiga xizmat qilishi lozim.

Har bir etuk ma'rifatli murabbiy darsni ma'naviy va axloqiy, pok iymonli, insofli diyonatli, or-nomusli va mexr oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishish lozim.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusining tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qaratilgan. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'rgnash, bu xududdagi davlatlarning, shaharlarning geografik o'rni, ichki suvlari, tabiiy sharoiti, siyosiy kartasi, tabiiy resurslari, qazilma boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, sanoat qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi bilimlarni egallash, ular haqidagi ko'nikmalarga ega bo'lish kabi tushunchalar o'quvchilarning bilimini va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti bilan o'zaro chambarchas munosabatda bog'langanligi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta'minlovchi manba nuqtai-nazari bilan bog'lovchi yuksak ma'rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zero olimlarmiz ta'kidlaganidek "insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa bu tarbiyadur"

V) Rivojlartiruvchi maqsad:

O`quvchilar «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o`zlashtirishlari bilan ular ongida quyidagi bilim va tushunchalar o`z o`rnini topadi. O`quvchining o`z fikrini bayon etish, bevosita muloqat va nutq madaniyatini shakllantirish. Hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish. O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, ularning nutq madaniyatini o`stirish, ularda hozirjavoblik, topqirlik kabi xususiyatlarini shakllantirish.

- Yevrosiyo materigining iqlim xususiyatlari materik tabiatining bir butun iqlim xususiyatlarga hos ekanligini o`rganish.
- Geografik o`rin jihatdan tuzilishining materik iqlim xususiyatlariga, relyef va ichki suvlari tuzilishiga xos ravishda juda notekis joylashganligini tushuntiradi.
- Yevrosiyo materigining o`rganilish tarixi, iqlim xususiyatlari taraqqiyotining bosqichlari haqida tushuncha hosil qilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali geografik o`rin va tekshirilish tarixi, tabiatining va foydali qazilmalartizimining insontomonidan o`zgartirilganligi va uning geografik hamda ekologik oqibatlari, tadbirlari xususida o`quvchilar ongida tushuncha hosil qilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosining hosil bo`lishiga ko`ra turlari va ularning hududda taqsimlashda o`ziga xos xususiyatlarni ajratish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali iqlim xususiyatlaridan xalq xo`jaligida foydalanish va ularda ro`y berayotgan antropogen o`zgarishlar to`g`risida tushunchaga ega bo`lish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o`rganish orqali hududlarda baykal, kaledon, gersin, alp burmalanishlari natijasida ro`y bergan

o'zgarishlarni o'rganish.

- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini xo'jalik maqsadlariga ko'ra turlarini ajratish. Ularning atrof-muhit ekologik vaziyatiga ta'sirini chuqur anglay bilish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali iqlim xususiyatlari rivojlanishining tarkib topish sharoiti va ularning turlari: ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini va ularning atrof- muhit ekologik holatiga ta'sirini o'rganish.
- Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini o'rganish orqali geografik o'rin va tekshirilish tarixi, geologik sana, to'g' jinslarining turlarini, ichki suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosini bilish.

G.Milliy istiqlol g'oyasini singdirish:

Milliy istiqlol g'oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va insoniylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o'quvchi «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'rganishda usha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayoxatchilarning qilgan qahramonliklarini, qilgan tadqiq ishlari alohida e'tiborga olinib o'rganish alohida kasb etadi. «Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusini o'rganish orqali geografik o'rni, tekshirilish tarixi, chegaralari, foydali qazilmalari, ichki suvlari, tabiiy sharoiti va resurslarining xilma xilligi, ularning iqtisodiy rivojlanishi bosqichlarini kelajak avlodga targ'ibot qilish, tushuntirish va o'rgatishni maqsad qilib qo'yish lozim.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'rganishda har bir o'quvchi o'z oldiga tabiiy resurslarni qadrlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o'zi bilishi, tushunishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchalarni chuqur his qilmog'i lozim.

«YEVROSIYO MATERIGINING IQLIMI» MAVZUSINI OQITISH METODLARI.

Barcha fanlarda bo'lgani kabi Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusi uchun ham metodologik asos birinchi navbatda falsafiy – dialektik qonunlar hisoblanadi. Dialektik qonunlarni ikki guruhga ajratadilar.

Birinchi, borliqning doimo harakatda, ularni tashkil qilgan qismlarining modda, enyergiya tufayli o'zaro bog'liqligi va nihoyat bir butunligi.

Ikkinchi, esa borliqni, aniqrog'i geografik tizimlarning uzluksiz rivojlanishda ekanligi.

Bundan tashqari, umumgeografik va mintaqaviy qonuniyatlar (geografik qobiqning bir butunligi, zonallik, azonallik, sektorlik, davriylik, intrazonallik, ro'paralilik–ro'parasizlik, havza nazariyasi qonuniyati kabilar) Evrosiyo materigining iqlimi mavzusi uchun ham nazariy asos bo'la oladi.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan kelib chiqadigan qonuniyatlar Evrosiyo materigining iqlimi mavzusi uchun ham metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Yuqorida qayd qilingan qonuniyatlar juda katta harakatlantiruvchi kuchga ega. Bular rivojlanishning mazmun –mohiyatini ochib berish uchun ilmiy – nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Usul – borliqni bilish vositasi. Quyida ularning ayrimlarini keltiramiz:

1. Mantiqiy usul.Bunda mantiqiy fikrlash qudrati asosida bo'lg'usi jarayon, o'zgarishlar haqida fikr qilinadi. Bu induktiv, deduktiv usullarni o'z ichiga oladi. Induktiv usulda jarayon va hodisalarning bir – biriga bog'lanish sabablari o'rganiladi va xususiylikdan umumiylikka tomon xulosalanadi. Deduktiv usulda esa, birbutunlikdan xususiylikka tomon o'zgarishlarga e'tibor beriladi. Mazkur usul iqlim mintaqalari strategiyasini belgilab beradi. Induktiv – deduktiv usullar bir – biri bilan uzviy bog'liq. Har qanday

deduktiv xulosa, induktivdan so'ng nihoyasiga yetadi. Induktiv usul geografiya fani tarixida etakchi bo'lib kelgan bo'lsa, hozirgi davrda matematik – mantiq usuli esa deduktiv usulning rivojiga katta yo'l ochib berdi.

2. Tarixiy- genetik usul. Bunda jarayon va hodisalarning evolyutsion rivojlanishi yo'nalishini hisobga olib, bo'lg'usi o'zgarishlarni hisob qilish. Ya'ni o'tmishni (retrospektiv) hisobga olib kelajakni (perspektiv) bilish. “Tarix o'tmishni oynasi, kelajakni ustozidir” degan tamoyilga amal qilish. “Yer yuzasining o'tmishi geograflar uchun uning hozirgi manzarasini bilish uchun kalitdir”, degan edi akademik K.K.Markov. Olimning bu xulosasiga qo'shimcha qilib o'tmish, nafaqat hozirgi, balki kelajak manzarasini bilish uchun ham kalitdir, deyish mumkin.

Bu usul ko'p hollarda mantiqiy va ekstrapolyatsiya usullari bilan uyg'unlashib ketadi.

3. O'xshatish usuli (analogiya). Ma'lum joyda uzoq yillar davomida ro'y bergan hodisa va jarayonlar asosida xuddi shunga o'xshash bo'lgan boshqa joylarda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlarni o'zlashtirish demakdir, ya'ni ularning o'xshashligidan foydalanib, qiyos qilib ikkinchi joyda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'zlashtirishdir. Bunday o'zlashtirishlar to'laligicha o'zini oqlamasada, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlarning umumiy yo'nalishini va bo'lg'usi oqibatlarni anglashga imkon beradi.

4. Statistik usul(statistik – matematik. Ushbu usul ekstrapolyatsiya usuliga o'xshab ketsada o'ziga xosdir. Bunda raqamlarning aniqlik darajasi asosiy o'rin tutadi. Bunday raqamlar “o'jar”, “qaysar” bo'ladi, ularni inkor etib bo'lmaydi. Raqamlar asosida tuzilgan turli xil jadval, diagrammalarni “tilga” kiritib bo'lg'usi o'zgarishlar haqida e'tiborga loyiq xulosalar chiqarish mumkin. Masalan, qazib olinayotgan mineral boylikning zahirasi aniq bo'lsa,

bir yilda qazib olinayotgan ko'rsatgichlar orqali boylikning tugash muddatlarini bilish qiyin emas.

5. Immitatsion modellashtirish usuli- Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusi uchun ham qo'l keladi. Bu murakkab jarayonlarni mashinada, chizmalarda, qurilmalarda namoyon etilishi. Ya'ni asliga o'xshatib yasalgan narsa, qurilmalardan foydalanib bo'lg'usi jarayon va hodisalarni o'zlashtirish qilish mumkin.

6. Ekstrapolyatsiya usuli. Ekstrapolyatsiya (lot. ekstra – tez, rollo – to'g'rilayman) – biror hodisaning bir qismini kuzatish natijasida olingan xulosani shu hodisaning boshqa qismiga, kelgusiga tadbiq etishni anglatadi. Bu usulda hozirgi vaziyatdan kelib chiqib kelajak o'zlashtiriladi. Buni ba'zan genetik – tarixiy usul ham deyiladi. Ayni davrga tegishli statistik ma'lumotlar kelajakka tomon yilma – yil surilib boradi. Demografiyada buni “Demografik surish usuli” vositasida amalga oshiriladi. Ekstrapolyatsiya ichki imkoniyatlarga asoslanadi. Unda tashqi omillar hisobga olinmaydi. Shu boisdan ayrim tadqiqotchilar bu usulni “ko'r” usul deb ataydilar.

7. Ekspert usuli. Ekspert lotincha so'zdan olingan bo'lib, “tajribali”, “yuqori malakali mutaxassis” ma'nosiga ega. Odatda ekspertlar yirik muammolarni o'rganish, o'rgatish uchun jalb qilinadi. Masalan, fan va texnika taraqqiyoti, bozor munosabatlariga o'tish mintaqaviy iqtisodiy, siyosiy–ijtimoiy, urbanizatsiya jarayonlari kabilarni o'rganish uchun yuqori malakali mutaxassislar jalb qilinadi. Ular bir–birini tanishi shart emas. Bunda har bir mutaxassis o'z tajriba va malakasidan kelib chiqib muammoning kelajagiga oid fikrlarini erkin xolis bayon qiladi. Ekspert usulini qo'llashda ikkita yondoshuv mavjud.

Birinchisi, induvidual – shaxsiy, ya'ni “ekspert – hisobot” tarzida bo'lib, kun tartibidagi muammo bo'yicha ekspert o'zining erkin xolisona fikrini bildiradi.

Ikkinchisi, jamoa usuli, bunga 10 tadan 200 tagacha ekspertlar jalb qilinadi. Bu “Delfi” usuli sifatida 1964 – 1965 yillarda AQSH da ishlab chiqilgan bo‘lib, u bir necha bosqichdan iborat. Har bir ekspert kun tartibiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha anketa savollariga alohida yozma javob qaytaradilar. To‘rt bosqichdan iborat bo‘lgan bu tanlov jarayoni oxirida eng yuqori reyting ballariga ega bo‘lgan fikr va xulosalar (variantlar) qabul qilinadi. Mazkur ekspert bashoratlarning aniqlik darajasi 2/3 qismni tashkil qiladi (Zvonkova, 1987y).

Rivojlangan mamalakatlar ta‘lim tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta‘minlovchi yetakchi omil sifatida ta‘lim jarayoni e‘tirof etilsa, biz shaxsning shakllanishida ta‘lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg‘u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayoni bu borada ustuvor bo‘lishi lozim, chunki o‘zida axloqiy xislatlarni namayon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta‘minlaydi, axloqli insongina ta‘lim (bilim)ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalardan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g‘oyani ilgari suramiz. Shunday ekan, bu o‘rinda “pedagogik texnologiya” tushunchasining qo‘llanilishi, shuningdek, asosiy e‘tiborni faqat ta‘lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta‘lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlashga birdek qaratish lozimdir. “Ta‘lim texnologiyasi” tushunchasi “ta‘lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir.

Ta‘lim metodi - o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta‘lim metodikasi esa muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

Ta‘lim texnologiyasi- ta‘lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya‘ni avvaldan loyihalashtirilgan ta‘lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalgam oshirish, aniq maqsadga erishish

yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun shart sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi - o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. "Ta'lim texnologiyasi" xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchga berilgan ta'riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlaymiz. Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimning pedagogik tizimning pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uning quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi.

O'quvchi ta'lim tarbiyaning maqsadi;

- 1) Ta'lim tarbiya mazmuni
- 2) O'quv jarayoni ;
- 3) O'qituvchi yoki texnik vositalar
- 4) Ta'lim tarbiyaning tashkiliy shakllari

Xalq xo'jaligining moddiy ishlab chiqarishga asoslangan soharida qo'llanilayotgan texnologiyalar mohiyatini.O'rganish hamda muammo doirasida nashr etilgan risolalar mazmuni bilan tanishish "Pedagogik texnologiya" ta'lim tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to'g'risidagi fan ekanligini e'tirof etish imkonini beradi.Bizga yaxshi ma'lumki, tarbiya jarayoni uzoq muddatli, murakkab, uzluksiz bo'lib, u o'ziga xos

xususiyatlarga ega. Garchi zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsa-da, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilanadi.

- 1 tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- 2 tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat)
- 3 tarbiya maqsadi;
- 4 tarbiya mazmuni;
- 5 o'qituvchi (tabiyachi) faoliyati;
- 6 O'quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7 tarbiya samarasi (samarasi)

Ushbu fikrlar asosida tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi tasvirda quyidagicha namayon bo'ladi. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, quyidagicha namayon bo'ladi. Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi xususiyatlarni namayon etadi.

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta'lim tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namayon bo'ladi.
3. Pedagogik texnologiya ta'lim tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini

aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

4 Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

4. Pedagogik texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart - sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi quyidagi shartlarga amal qilinishiga bog'liq.

1. Mavjud shart sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etish.
2. O'quvchi (tarbiyalanuvchi)larning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.
3. Ta'lim (tarbiya) jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish
4. O'quvchi (tarbiyalanuvchi)lar faoliyatini ob'ektiv nazorat qilish va baholash
5. Xususiy fanlarni o'qitish jarayonida imkon qadar, albatta, samarali ravishda texnik vositalar imkoniyatidan keng foydalanish.

Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari umumpedagogik, xususiy – metodik hamda lokal (modul) bilimlarga asoslanadi. Shu bois pedagogik xodimlar, shuningdek, bo'lg'usi o'qituvchilar o'z faoliyatlarida pedagogik texnologiyadan foydalanishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar,

yuqorida qayd etilgan bilimlarni puxta o'zlashtira olishlari lozim. Zero, pedagogik texnologiya puxta o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tashkil etiladigan yuksak samarador pedagogik faoliyat jarayonidir.

O'quvchilarning geografik bilimlarini o'rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o'qituvchi tomonidan tashkil etilishiga bog'liq.

O'qituvchi o'quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarni tadbiq eta olsa, o'quvchilar o'sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o'qituvchi o'quvchilarga o'rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o'quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o'quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish ko'nikma malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantiradigan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, o'laroq ilmiy bilimni asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalaydigan metodlarga tushuniladi.

Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta'limining mazmuniga ham bog'liq. Ilmiy-texnika jarayoni sharoitida an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilmoqda. Ta'lim nazariyasi va geografiya ta'limida hozirgi kunda quyidagi tasnif keng tarqalgan:

- I. Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra;
2. Didaktik maqsadlarga ko'ra;
3. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: «Yangi bilim olish metodlariga va olingan bilimlarni qayta tiklash metodlariga» ajratish mumkin.

Biz «Yevrosiyo materiginingiqlimi» mavzusini umumta'lim maktablarida o'qitishda «Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra» turlaridan foydalanib, darslarni tashkil etish uslublarini ko'rib chiqamiz.


O'qituvchining har bir dars jarayonida keng qo'llash imkoniga ega bo'lgan, o'quvchilar ongiga tez yetib borishi va puxta bilim, ko'nikmalar xosil qiladigan metod turi **bu-og'zaki bayon** metodidir.

Og'zaki metodlar o'qitishda doimo eng ko'p qo'llanib kelingan. Bu metodlar o'qitish metodlari tizimida ustunlik qilgan davrlar ham bo'lgan. Ilg'or pedagoglar (Ya.A.Konenskiy, I.G.Pestalossi) bu metodlarni ortiqcha bo'rttirishga qarshi kurashganlar, ularni ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan to'ldirishning zarurligini isbotlaganlar. O'qituvchining so'zi bilan bog'liq bo'lgan turli usullardan boshlang'ich va yuqori sinflarda turlicha foydalaniladi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchining yorqin, emosional hikoyasi ustunlik qilib, keyinchalik bu suhbat tobora kengroq to'ldirib boriladi. Yuqori sinflarda, ayniqsa, atriq, jamiyatshunoslik, adabiyot, jo'g'rofiya fanlarini o'qitishda bu sinf o'quvchilarining o'quv imkoniyatlariga muvofiq keladigan maktab ma'ruzasidan muvaffaqiyatli foydalaniladi.

Demak, o'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, deyarli hamma sinflarda o'quv fanlari bo'yicha qo'llaniladi. O'qitishning og'zaki usuli uch turga bo'linadi.

O'g'zaki bayon ta'lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib, u geografiya fanining zamonga mos ravishda rivojlanayotgan turli jabhalari va muammolari, yutuqlari to'g'risida tanishtiriladi. O'qituvchi nutqidagi mantiq intonatsiya, o'rg'uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'qituvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashiga o'rgatadi, ma'lum xulosalarga olib keladi. Jonli nutq o'quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar, kursatmali qurollar va matnlar

mazmunini tushuntirish, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yul ochib beradi.



O'g'zaki bayon ta'lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib, u geografiya fanining zamonga mos ravishda rivojlanayotgan turli jabhalari va muammolari, yutuqlari to'g'risida tanishtiriladi. O'qituvchi nutqidagi mantiq intonatsiya, o'rg'uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo'lishi o'qituvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga, kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularni fikrlashiga o'rgatadi, ma'lum xulosalarga olib keladi. Jonli nutq o'qituvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar, kursatmali qurollar va matnlar mazmunini tushuntirish, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yul ochib beradi.

O'g'zaki bayon boshqa metodlar bilan qo'shib olib borilishi kerak. O'qituvchining o'g'zaki bayoni shuning uchun ham muhimki, o'qituvchi darsga oid ma'lumotlarni darslikdan, kitoblardan qayta-qayta o'zlashtirishi mumkin. Lekin o'qituvchining bayonini qayta-qayta eshitish olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi dars jarayonida darslikdan tashqari ma'lumotlardan keng foydalanish va mavzuning asosiy zaruriy qismlarini yodda qoladigan qilib ta'kidlab o'tmogi lozim.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitishda o'qituvchi og'zaki bayon metodidan foydalanib, Yevrosiyo materigining iqlimi juda murakkab

bosqichlarni va tadqiqotlarni o'z boshidan kechirganligi, o'lkada tekshirilishlar juda ko'p ekanligini, har qaysi hududi o'ziga xos iqlim hususiyatlarga ega ekanligini dunyoning tabiiy va iqlim kartalaridan foydalanib og'zaki bayon etadi.

Yevrosiyo materigi hududi turli geografik davrlarda tekshirilish vatadqiqotlarni o'z boshidan kechirganligini tabiiy va iqlim kartalaridan foydalanib bilib olishish mumkin. Iqlimi va iqlimiy hususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni xududning taraqqiyot davomida turli davrlarda bo'lib o'tgan burmalanishlar va vulqon harakatlarini o'z boshidan kechirganliklarini, hududdagi to'g'lar, to'g' tizmalari, to'g' sistemalari, tekisliklar, pasttekisliklar, botiqlar, vodiylar va cho'llarning tarkib topishi to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni taqqoslash, statistika, jadval va diagrammalar, kartalar yordamidan foydalanib og'zaki bayon etadi.

O'g'zaki bayon metodi davomida o'quvchilar faoliyatini oshiruvchan turli usullar: taqqoslash, iqlimiga hos joylarni kartadan toptirish, savol-javoblardan foydalanish, o'rganilgan masalalar yuzasidan xulosalar chiqarish lozim. O'qituvchilar bilim va ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun ularning e'tiborini ko'proq asosiy masalalarga jalb qilish mavzuning asosiy va ikkinchi darajali o'rinlarini ajrata olishlariga imkoniyat yaratish lozim.

O'quvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarni kengroq ochib berish lozim bo'lganda tushuntirish metodidan foydalaniladi. Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusini o'rganish davomida xudud geografik o'rnining shakllanishi, tekshirish tarixi, tabiiy sharoitining rivojlanishi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlim hususiyatlari qaysi geologik davrlarda rivojlanganligi, ularning eralar va davrlar kesimida tushuntirish va foydali qazilmalarning vujudga kelishi xususiyatlarini ochib berish kabi tushunchalarini yetkazish lozim. Iqlimiy hususiyatlarining rivojlanishning ma'lum qonuniyat asosida borganligi ham diqqatga sazovardir.

Bu qonuniyatlarni doskada quyidagi tayanch reja asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

1. Yevrosiyo materigining iqlimiy hususiyatlarini o'rganish davomida xududning iqlimi va iqlim mintaqalarining tuzilishi asosan qaysi era va davrlarda shakllangan va bunga sabab nima?
2. Nima sababdan Evrosiyo iqlimini o'rganish davomida iqlimi va iqlim mintaqalarining tuzilish taraqqiyotning asosiy bosqichlari yangi rivojlanish bosqichlarga to'g'ri keladi?
3. Dunyoning tabiiy va iqlim kartasidan foydalanib xududning iqlimi va iqlim mintaqalarining tuzilishlarining joylanish rayonlarini belgilang?

Yuqoridagi savollar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, xulosalar chiqarishga, voqea hodisalarining sabablarini ajratishga va kelajakda muammolarni hal qilish tadbirlari izlab fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy va amaliy matyeriallarni puxta, izchil bayon qilish ilmiy bilimlarni egallashning asosini tashkil etadi.

Hikoya-Bu usul maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Hikoyaning bir necha turi mavjud.

- **Kirish hikoya** – O'quvchilarni boshqa metodlar bilan tabiat komponentazilishi mumkin bo'lgan yangi o'quv materialini idrok qilishga tayyorlaydi.
- **Bayon hikoyada** - o'qituvchi yangi mavzuning bayonini ochib beradi. Bayonni mantiqiy rivojlanib boradigan tarzda, reja bo'yicha aniq izchillikda, muhimlarini ajratgan, illyustratsiyalardan foydalangan holda olib boradi.
- **Xulosa –hikoya** odatda dars oxirida o'tabiat komponentaziladi. O'qituvchi asosiy fikrlarni yakunlaydi, xulosa va umumlashmalar qiladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya ancha qisqa va aniq bo'ladi. Sinflarning

o'rta guruhiga kelib, u ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi. Yuqori sinflarda hajmi anchagina katta o'quv materialini ajratilgan vaqt ichida bayon qilib ulgurish uchun ko'proq hikoyadan foydalaniladi. Lekin, bu yerda hikoya ma'ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi. Hikoya yakunlangach, u suhbat va tushuntirishlar bilan to'ldiriladi.

O'quv ma'ruzasi. O'qitishning og'zaki usullaridan biri bo'lgan o'quv ma'ruzasi o'quv materialini og'zaki bayon qilish uchun mo'ljallanadi. Bu o'quv materialini hikoyadagiga nisbatan hajmining kattaligi, mantiqiy tuzilishi, obrazlari, isbot va umumlashtirishlarning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar hikoya darsning yoki mashg'ulotning bir qisminigina egallasa, ma'ruza odatda, ularni to'la qamrab oladi.

Ma'ruza asosan, o'rta umumiy ta'lim maktabining yuqori sinflarida, kasb – hunarkollejlari, litseylar va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Maktab ma'ruzasi - o'tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mihiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo'li bilan bir soatlik mashg'ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

Suhbat usuli - og'zaki bayon qilish usulining asosiy turlaridan biri bo'lib, maktablar tajribasida eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biridir. Ko'pincha, bu usul savol-javob usuli deb ham yuritiladi. Chunki bu usulda ish ko'rilsa, dars asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi. Shunday suhbatlar mavjudki, bunday suhbat davomida o'quvchilar ilgari o'zlashtirganlarini eslaydilar, tizimga soladilar, umumlashtiradilar, xulosalar chiqaradilar, ulardan turmushda foydalanishga doir yangi misollarni axtaradilar.

O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi. O'qitishning tarbiyalovchi xarakterini kuchaytirish maqsadida dunyoqarash va e'tiqodni tarkib toptirishga qaratilgan suhbatlar ham qo'llaniladi. “Odobnoma”, “Vatan tuyg'usi”, darslarining

kiritilishi munosabati bilan o'quv jarayonida etnik suhbatlardan foydalanishning imkoniyatlari ancha kengaydi.

Bilimlarni og'zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi.

1. Bayon qilanoqotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Bayon qilinayotgan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlash va amalga oshirish lozim.

3. Bayon qilishda o'qituvchining nutqi yagona manba hisoblanadi, uning ravon, tushunarli bo'lishi hal qiluvchi omildir. Shuning uchun ham muallim o'quv materialini his-tuyg'uli ifoda qilib brishi ham nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

4. Bayon qilish jarayonida o'qituvchi tomonidan ishlatilgan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilgan hollarda o'qituvchi ko'rsatgan ta'riflar yozib olinishi kerak. Mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llaniladi.

Xullas, usullarini o'zlashtirish, takomillashtirish, dunyoviy, mintaqaviy va mahalliy muammolarni o'zlashtirishning amaliy ahamiyatini chuqur anglash, uning aniqlik darajasini oshirish kabi vazifalar davr talabi hisoblanadi.

Hikoya - o'quv matyeriallarini bayon qilish shakli bo'lib, asosan tasvirlash harakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o'qituvchi o'quvchilar bilan ko'proq munosabatda bo'ladi. Yevrosiyo materigining iqlimining tashkil topishi, joylashgan geografik o'rni, hududlari, tabiiy hususiyatlari va ularning tarqalgan rayonlari, rivojlanish bosqichlari, ob-havo

va iqlimlar, iqlim mintaqalarning Yevrosiyo materigi hududidagi xususiyatlarini tushuntirishda hikoya metodi qoʻl keladi.

Hikoya davomida Evrosiyo materigining iqlimining tashkil topishi, joylashgan geografik oʻrni, hududlari, tabiiy xususiyatlari va ularning tarqalgan rayonlari, rivojlanish bosqichlari, ob-havo va iqlimlar, iqlim mintaqalarning joylashishini geografik va iqlim kartalaridagi koʻrsatgichlardan foydalanilsa hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. Oʻqituvchi hikoyani oʻquvchining yoshiga moslab tanlaydi. 6-sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi unda tushunchalar masalan, Yevrosiyo materigining iqlimi va iqlim xususiyatlari, geologik-geografik xususiyatlari, tarixiy taraqqiyotning rivojlanish darajasi bir-biriga nisbatan uzviy bogʻlangan va hakozi tushunchalar hamda atamalar albatta aks etishi lozim.

Hikoya davomida oʻqituvchi nazorat savollarini berib borishi, masalan, Yevrosiyo materigidagi eng katta hududlarda olib borilgan iqlimiy tekshirishlar qaysilari, ular qaysi mintaqada joylashgan, ularning joylashgan hududlari, nomlari, qachon oʻrganilish boshlangan, asosan dunyodagi qaysi mamlakatlarda tekshirishlar va tadqiqotlar olib borilgan kabi savollarni berib borish mavzuning puxta oʻzlashtirilishini taʼminlaydi.

Tushuntirish - oʻqituvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qoʻllaniladi. Bu metod geografiya taʼlimida bilimlarni izchil oʻrganish imkonini beradi. Yevrosiyo materigining iqlimi va iqlim xususiyatlarining geografik taraqqiyat bosqichlari boʻyicha rivojlanishi, ularning sabablari, geologik burmalanishlar, baykal, kaledon, gyersin, alp tushunchalari va ularning rivojlanish davrlari, hududga taʼsiri, toʻgʻ jinslarining toʻplanishi, hosil boʻlishi, tarqalishi, yoshi tushunchalarini izohlashda tushuntirish metodidan samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari Yevrosiyo materigining iqlimi va iqlim xususiyatlarini xududlar boʻyicha tahlil qilib izohlashda tushuntirish

metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni voqea va xodisalardan xabardor qiladi, ular o'rtasidagi aloqalarni ochib beradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. O'qituvchi bunda qisqacha muammoli savollar berishi mumkin. Masalan: Yevrosiyo materigining geografik orni va tekshirilish tarixi, iqlimi va iqlim xususiyatlarining Afrika va Amerika materiglarining geografik orni va tekshirilish tarixi, iqlimi va iqlim xususiyatlariga, tabiiy sharoitiga nisbatan farqlanishini, uning sabablari haqidagi bilimlarni aniq faktlar asosida izohlab berishi lozim. Tushuntirish bilan birga kartalar, diagrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o'quvchilar xotirasi va mavzuning chuqur o'rganishga sabab bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchining ikki tomonlama aloqasi tushuntirish metodini takomillashtirishga yordam beradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo'lishi lozim.

Maktab geografiya ta'limida alohida ahamiyat kasb etadigan **suhbat** metodida esa o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. Bu metodning bosh talabi mukammal o'ylangan savollar va o'quvchilar qaytarishi mumkin bo'lgan javoblarning puxta tuzilishidir. Bunda savol aniq bo'lishi, ya'ni o'quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari shart. Mavzu e'lon qilingandan so'ng savollar o'rta tashlanadi. **Suhbat** mantiqiy qismlarga bo'linadi, o'qituvchi o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzatadi va to'ldiradi. Shundan so'ng o'quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Suhbat metodi o'qituvchi savoli va o'quvchining javobi asosida o'quv materialini o'zlashtirishi, mavzu mohiyatini tushuntirilish darajasi va bilim egalashning savol- javob shaklidir.

Suhbat metodini tashkil etishda qo'yiladigan asosiy talab- mukammal o'ylangan savollar tizimi va unga o'quvchining berishi mumkin bo'lgan javoblarining puxta tizimidir.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'tishda keng ko'lamdagi yevristik suhbatdan foydalanib quyidagi savolar tizimini o'quvchilar e'tiboriga havola qilish mumkin.

- Yevrosiyo materigining iqlimi qanday o'ziga hos xususiyatlarini o'zida aks ettiradi?
- Iqlimi va iqlim xususiyatlari nima sababdan turlicha?
- Hududda iqlim mintaqalarining kengligi, maydoni, balandligi, cho'qqisi qanchaga teng?
- Yevrosiyo materigining iqlimidagi yirik tadqiqotlar nomlarini ayting.
- Yevrosiyo materigidagi eng keng iqlim mintaqasining qaysi tadqiqotchi tomondan kashf etilgan va u qanday nom bilan ataladi?
- Yevrosiyo materigining tabiiy va iqlim mintaqalari kartasini tahlil qiling?
- Yevrosiyo materigidagi yirik geografik tadqiqotlarni qaysi olimlar kashf etganligi bilan bog'liq nomlarini ayting?
- Yevrosiyo materigida ro'y bergan yirik tekshirishlar va tadqiqotlar olib borgan olimlar nomlarini ayting?
- Yevrosiyo materigidagi yirik iqlim mintaqalarining kashf etilishi bilan bog'liq nomlarini ayting?
- Yevrosiyo materigining iqlimiga ko'ra qaysi hududlarida iqlim mintaqalari keng tarqalgan, buning sababi nima va kim tomondan kashf qilingan?

Keng ko'lamdagi bunday **suhbat** asosan yangi bilimlarni o'rganish va yakuniy takrorlashda qo'llanib, savollar bir-birini to'ldirishi, sabab-alohadorlik qonuniyatlarini tushuntirishga yordam qilishi lozim. Savollarning javobini aytishga o'quvchi qiynalganda yoki javob to'liq bayon etilmaganda, o'qituvchi javoblar mazmunini o'zi keng yoritib berishi lozim. **Suhbat** boshqa metodlar bilan qo'shib olib boriladi. Bu metodlar bilan yana bir ijobiy xususiyati shundaki bu metodda mavzu matyerialini puxta o'rganish bilan bir vaqtda o'quvchilar bilimni aniqlash imkoni bo'ladi.

Ma'ruza metodidan umumtalim maktablarining yuqori sinflarida geografiya darslarida murakkab mavzuli va keng hajmli mavzularda foydalaniladi. Ma'ruza jarayonida mavzu ravon, ilmiy va izchillik asosidaboshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilib olib boriladi. Ma'ruza vaqtida xarita, jadval, grafik, tasvirli qo'llanmalar, doska va turli vositalardan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

- Ma'ruza ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi lozim.
- Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtiradigan bo'lishi kyerak.
- Ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi kyerak.
- Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kyerak.
- Ma'ruzaning o'quvchilarga etib borish uchun o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi lozim.
- Savollar ma'ruza yakunida byerilishi maqsadga muvofiq.

Geografiya darslarida o'qituvchining o'qib berishi.

Matn badiiy jihatdan boy va ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p usullarini qullashi imkoni tug'ilgan vaqtlarda bu metoddan foydaniladi. Mavzuga oid matnlarni geografik kitoblar, jurnal va gazetalardan olish mumkin.

Mavzuga oid badiiy mantlar: A. Tasman, Jeyms Kuk va boshqa tadqiqotchilarning asarlarada Evrosiyo materigining iqlimi va iqlim xususiyatlari, iqlim mintaqalari, o'sha davrdagi geografik kashfiyotlar hamda iqlim mintaqalarining rivojlanishlari haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni qiziqarli va mazmunli o'tilishiga sabab bo'ladi.

Mavzuga oid gazeta va jurnallardagi yangiliklar: masalan, iqlim mintaqalari va iqlimmuammolari, yangi iqlim xususiyatlarigan iqlim o'lkalari haqidagi ma'lumotlarni o'qib berish darsni zamon va fan-texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirib olib borishga imkon byeradi.

Geografiya darsligi bilan ishlash metodlari.

Nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

- Matn bilan ishlash.
- Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusi matni bilan ishlaganda geografiya o'qituvchisi o'quvchini matnni o'qib izchil o'rganishga erishishi lozim. Darslikda mavzuning boshlanish qismida bundan oldingi geografiya darslarida iqlim o'zgarishlari, iqlim mintaqalari mavzularini xotirada esga olish va ba'zi geografik tushunchalar mazmuni so'rash savollari mavjud. Mavzu matni bir necha qismlarga bo'linib har bir darsni mana shu qismlarga muvofiq reja asosida o'tish lozim. Yevrosiyo materigining iqlimi va iqlim mintaqalari tanishtirigan sung, geografik o'rin, tekshirishlar tarixi, iqlim mintaqalarga ta'rifi, iqlim xususiyatlariga ta'rif, yirik iqlim mintaqalarning xususiyatlari, er ostining tuzilishi bayoni ketma-ketlik asosida ta'riflanadi. Mavzu yakunida matnni mustahkamlash va olingan bilimlarni rivojlantirish maqsadida savol va topshiriqlar berilgan. O'quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanishlarinitakomillashtirish maqsadida savollardan va amalda bajarish uchun mo'ljallangan topshiriqlardan iborat. «O'ylab ko'ring va amalda bajarish» nomli topshiriqlar tizimi berilgan. O'quvchilar mustaqil ravishda

Evrosiyo materigining iqlimini darslik matni va qo'shimcha adabiyotlar hamda o'qituvchi to'ldirishlari mumkin.

Yevrosiyo materigi iqlimining o'rganilish xususiyatlari.

Arktika va sub arktika mintaqa si	Tundra, taiga, aralash va keng bargli	Mo'tadil mintaqasi	Tropik va sub tropic mintaqasi	Ekvatoria l va sub ekvatorial	Qo'shim cha tadqiqotl ar	Ko'p tadqiqotlar olib borilgan vaqti	Qaysi ilmiy tashkilotl ar ishtirok etgan
---	---	-----------------------	--------------------------------------	-------------------------------------	-----------------------------------	---	--

Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o`qitishda noan`naviy dars uslublarini qo`llash.

BILIM- egallashga eltuvchi yagona yo`l, bu faoliyatdir.

Byernard Shou.

Yangi asr bo`sag`asida biz sifat jihatdan tamomila yangi xalqlar jamiyatiga, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborot tizimga kirish uchun shaxdam qadamlarni bosmoqdamiz. O`sha jamiyatda o`z o`rnimizni topish anchagina tayyorgarlikni, bilimni talab qilishni ham bugun anglab yetmoqdamiz. Bosgan qadamlarimiz qat`iyatli va ishonchli bo`lishi uchun esa bizga zamonaviy, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab oladigan raqobatbardosh kadrlar zarur. Ta`limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O`zining kadr-qiymatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotga aniq maqsadga ega bo`lgan hur fikrlovchi insonlarni kamol toptirishda maktabning o`mi beqiyosdir.

Bugungi kunda butun jahonda tajribadan o`tgan, turli yunalishlar bo`yicha qo`llaniladigan uslublar bizning umumta`lim maktablarida sinovdan o`tmoqda.

Shuning uchun «Yevrosiyo materiginingiqlimi» mavzusini o`tishda ham hozirgi kun davr talabiga mos ravishda o`tilishi lozim.

«Yevrosiyo materiginingiqlimi» mavzusi o`tilishi jarayonida mazmunan quyidagi turlarga bo`lib, savollarni tashkil etish mumkin.

Aniq va to`liq ma`lumotlarni o`zlashtirishga oid savollar.

Yevrosiyo materiginingiqlimini tahlil qiling. Iqlim mintaqalarining nomini amaliy ishlar daftariga yozing. Qaysi iqlim mintaqalarining

hususiyatlarining tahliliga ko'ra tadqiqotlar kuchli rivojlangan? Rivojlangan iqlim mintaqalarning nomini birma-bir izohlang va nomini yozing. Qaysi era va davrlarda iqlimiy geografik tekshirishlar shakllangan, rivojlangan va qaysi davrga to'g'ri keladi? Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalaridan arktika, subarktika, tayga, aralash o'rmonlar, keng bargli o'rmonlar, mo'tadil, sub tropik, tropiklar qaysi xududlarda ko'p tarqalgan va qaysi sohalarda ishlatiladi, hususiyatlarini kimlar o'rganganini aniqlang. Yevrosiyo materigining iqlimiy tekshirishlar natijasida hududning iqlim mintaqalarining maydoni necha foizni tashkil etadi.

Kartani bilish va o'qib olishga oid savollar. Masalan: Yevrosiyo materigining iqlimi va tabiiy kartasini tahlil qiling. Kartadagi punsonlarga qarab, Yevrosiyo materigining iqlimiy hususiyatlariga ko'ra eng yirik, katta, o'rta va kichik tadqiqotlarini aniqlang va hakoza.

Sabab, aloqadorlik qonuniyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan tarzda savol javoblar. Masalan; Yevrosiyo materigining qaysi hududlarida eng yirik tadqiqotlari qaysi davrda vujudga kelgan va hakoza.

Bunday savol javoblar o'quvchining fikrlash qobiliyatini charxlaydi, ularda mustaqil fikrlash, fanga qiziqish va ilm to'plashga intilish tuyg'ularini rivojlantiradi.

Noto'g'ri berilgan javoblar o'qituvchi tomonidan to'g'rilanib borilishi va aniq berilgan javoblar o'z navbatida qo'shimchalar kiritilib, to'ldirilib borishi lozim.

Bunda savollar shunday qo'yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak.

Geografiya ta'limida ma'ruza qilish darslari yirik mavzular o'qilayotganda va nazariy bilimlar ko'proq mujassamlangan mavzular qo'llaniladi. Mavzuni sinov seminar tizimi bilan qo'shib olib berish maqsadga muvofiqdir. Maktabda ma'ruza quyidagi didektik talablarga javob berishi kerak.

- Ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi kerak.
- Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtirish lozim.
- Ma'ruza albatta ko'rgazmali bo'lishi kerak.
- Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va xodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metodlarni kartalar, tasvirli qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va karta sxemalardan foydalangan holda dars jarayoni o'tiladi. Masalan geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'rta maktablar uchun "6-sinf atlas" nashrdan chiqarilgan va biz o'tadigan mavzuga doir bu atlasda Yevrosiyo materigining iqlimi, iqlim mintaqalari, tabiiy geografik xususiyatlari, tabiiy resurslari kabi kartalari mavjud. Bundan tashqari Yevrosiyo materigining iqlimi, iqlim mintaqalarining geografik xususiyatlarini xarakterlovchi kartalar mavjud.

Kartada biz bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan voqea xodisalar ham tasvirlangan bo'ladi. U nafaqat ko'rgazmali qurolgina bo'lib qolmay, o'rganish ob'ekti, bilim manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Karta yordamida egallagan bilimlar o'quvchilar ongida uzoq saqlanib qoladi. Ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Ularda kuzatuvchanlik, tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xizmatlarni tarbiyalaydi.

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Geografiya fanini o'qitishning turli usullari va shakllari qaror topmoqda.

Bunda butun jahonda tajribadan o'tgan turli xil yo'nalishlar bo'yicha qo'llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o'tmoqda.

Hozirgi kun davr talabiga mos ravishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon darslari bir necha o'nlab xususiyatlarga ega.

Bunda avvalambor o'quvchi shaxsini shakllantirishga, unda geografik madaniyatni rivojlantirishga e'tibor berish lozim.

O'qituvchi o'quvchi bilimlarini faoliyati tashkil etishda asosiy tashkilotchi va maslaxatchi bo'lishi kerak. O'quv vazifalari muntazam kuzatilib borilishi, o'quv jarayoni paytida o'quvchilar o'rtasida o'zaro muloqatlar, o'zaro aloqa, suhbat va tortishuvlar bo'lishi lozim. Darsda bevosita o'z hududimizni mamlakat miqyosida va boshqa davlatlarga nisbatan taqqoslash muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy darslarda, dars-seminar, dars-sinov, dars-o'yin, dars-konfyerentsiya, muammoli vaziyat, "Mexmon chaqirish", "aqliy xujum", "rol o'yini", "qor uyumi", press konfyerentsiya kabi noan'anaviy dars uslublari qo'llanilmoqda. Quyida ushbu uslublardan foydalangan holda 6-sinflarda «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'qitish yo'l-yo'riqlari bilan tanishib chiqamiz.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishning eng keng qo'llanilayotgan shakllaridan biri – **seminar** darsidir. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini hamda mustaqillik xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Yevrosiyo materigining iqlimi mavzusini o'rganishda o'quvchilarni bir necha guruhlariga bo'lib, ularning bir qismiga Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlarini xududlar bo'yicha uyga vazifa qilib byeriladi.

Masalan: Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlari, Avstraliya materigining iqlimining geografik xususiyatlari, Shimoliy Amerka materigining iqlimining geografik xususiyatlari va hokozolar. O'quvchilarga o'qituvchi qanday adabiyotlar, jurnallar va gazetalardan ma'lumotlar olish mumkinligini tushuntiradi.

Seminar mashg'ulotiga o'qituvchining o'zi ham puxta tayyorgarlik ko'radi. Chunki har bir o'quvchi mavzu doirasida to'plangan ma'lumotlarni o'qituvchi to'ldirib borishi lozim. Shu bilan birga xar bir o'quvchi o'z ma'ruzasini xulosalashga o'rganish lozim.

O'quvchilar bilimi o'zlari bajargan ma'ruzalarining mazmuni va mohiyati rejasi va xulosasining mukammalligi va o'quvchi nutqi ravonligiga qarab o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Seminar darslari ko'p ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'p hajmli ma'lumot olish imkoniyati tug'iladi va o'quvchilarda turli bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Zamonaviy dars metodlarining ayrimlari bilimlarni mukammalligiga, ayrimlari mustaqil fikr yuritish va izlanishga, ayrimlari esa maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini charxlashga va xulosalar qilishga o'rgatuvchi metodlardan **“aqliy xujum”**, **“muammoli vaziyat”** metodlari ham bor. Bunda butun bir sinfga mavzuga doir biror savol tashlanadi. Masalan, mavzumizga doir «Yevrosiyo materigining iqlimi» qanday geografik xususiyatlarining asosiy omillari asosida rivojlanmoqda.

O'quvchilar bu savolga birin–ketin ayta boshlaydilar: geografik sharoiti va tabiiy boyliklari, iqlim mintaqalarining o'ziga xosligi, texnologiyalarining zamonaviyligi va hako'zolar. O'qituvchi bu javoblarni doskaga yozib boradi va o'quvchilarga geologik sharoiti va tabiiy boyliklariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting deb bergan savoliga o'quvchilar har bir javob bo'yicha qo'l ko'tarib tasdiqlaydilar.

Bu savolga o'qituvchi o'z fikrini aytadi va aniq to'g'ri javobni belgilaydi. Yana shu mavzu bo'yicha o'rtaga : Evrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlariga ko'ra ko'proq rivojlangan iqlim mintaqalarni aytinig degan savol tashlanadi. O'quvchilar unga mo'tadil hamda tropik mintaqalari va boshqalar deb javob byeradilar.

O`qituvchi; Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlarida qadimdan va hozirgi kunda ham rivojlangan iqlim mintaqalari haqidagi tarmoqlarini belgilang degan savoliga o`quvchilar javoblari ichida eng ko`p iqlimiy xususiyatlardagi aniqlangan tayga, tundra, mo`tadil, sub tropik, tropik kabi mavjud tarmog`ini belgilaydilar.

Ushbu muammoli savollar o`quvchilarni ijodiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Savollar mazmuni jihatdan tyeran bo`lishi lozim va o`quvchi uning javobini ishlashga xulosalar chiqarishga xarakat qilmog`i lozim. Darsda o`quvchilarning puxta bilim egallashlari, ko`proq ma`lumot to`plashlari uchun “qor uyumi” uslubidan foydalanish ham qo`l keladi. Bunda o`qituvchi mavzuga doir savol byeradi. Bu savolga xar bir o`quvchi o`z bilimiga tayangan holda javob berishga harakat qiladi.

«Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlarining o`ziga hosligi qaysi iqlim mintaqalariga to`g`ri keladi» yoki «Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlari» kelajakda qanday geografik oqibatlarni keltirib chiqaradi» yoki «Yevrosiyo materigining iqlimida hozirgi kunda qanday muammolar mavjud, Yevrosiyo materigining iqlimining geografik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga va iqlim mintaqalariga siz qanday yo`l-yo`riq ko`rsatgan bo`lar edingiz kabi savollar ushbu uslubda qo`llanishi mumkin. Ba`zi bir dars turlarida o`quvchilarning to`liq qatnashishi imkoni bo`lmaydi. Lekin “qor uyumi” uslubidan foydalanganda xar bir o`quvchi o`z fikr mulohazalarini bildiradi. Shuning uchun darsni qunt bilan tinglashga va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi.

Darsning mustahkamlash qismida savol javoblar bilan birga qatorlar o`rtasida musobaqalar, geografik o`yinlar, bosh qotirmalarni yechish kabi o`quvchilarning faolligini oshiruvchi uslublardan foydalanish qo`l keladi. Masalan, har bir qatordan bir vakil o`quvchi doskaga chiqarilib, bu uchta o`quvchiga Afrika materigining Yevrosiyo materigini, Avstraliya materigini, Shimoliy Amerka materigini yozing deb savol berish mumkin.

O'quvchining qaysi biri ma'lum bir vaqt ichida ko'proq javob yozsa, ushbu o'quvchi yutib chiqqanligini aytib berish lozim. Bu narsa nafaqat darsga qiziqishining ortib borishiga balki, o'quvchining kartalar bilan ham muttasil ishlab borishiga sabab bo'ladi.

Navoiy shahridagi 17-umumta'lim maktabida o'quv amaliyoti davrida 6-sinflarda «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi» fanidan «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusi bo'yicha ochiq dars o'tdim. Bu mavzuni o'tish jarayonida pedagogik amaliyot rahbarim o'qituvchi M. Bektasova maslahatlari bilan noan'anaviy dars uslublaridan dars- seminar, aqliy hujum va qatorlararo musoboqa turlarini qo'lladim. Natijada o'quvchilarning qiziqishlari va tayyorgarliklari ortdi. O'quvchilar butun dars davomida o'zaro bahs- munozara qildilar. Diagramma va kartalar bilan ishlab natija va xulosalarni bayon qildilar. Darsning yakunida o'z oldinga qo'yilgan ta'limiy, tarbiyaviy va o'quvchilar bilimini rivojlantiruvchi maqsadlarga to'liq erishdim. Darsimiz qiziqarli va mazmunli o'tdi.

Buyuk mumtoz shoirimiz AbdullaAvloniy aytganlaridek, «fikir tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur»

Darhaqiqat o'qituvchi, murabbiyning vazifasi o'quvchiga dars jarayonida faqat ilmiy, nazariy masalalarni o'rgatishdan iboratgina bo'lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi didi va salohiyatini ham shakllantirishi, har bir insonni erkin fikrlaydigan yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qilishi lozim.

Har bir etuk ma'rifatli murabbiy darsni ma'naviy va axloqiy pok, imonli, insofli, diyonatli, or-nomusli va mehr-oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishishi lozim.

Insonning, jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlarda oqilona fikr yuriturchi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta'minlovchi manba nukta nazarini bilan qarovchi yuksak ma'rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi.

Zyero mashoyihlarimiz ta'kidlaganidek. «Insonni - inson qilib etishtiruvchi narsa bu - tarbiyadir».

«Yevrosiyo materiginingiqlimi»ga umumiy ta'rifi.

Yevrosiyaning iqlimi boshqa materiklar iqlimiga qaraganda ancha xilma-xil.

Bunga sabab nima? Materik iqlimining xususiyatlari, avvalo Yevrosiyo hududining shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa qarab juda katta masofaga cho'zilganligi bo'lsa, ikkinchidan yer yuzasi tuzulishining ximalligiga va okeanlardan keladigan havo massalariga bog'liq.

Yevrosiyoda iyul oyining o'rtacha harorati ancha yuqori. Uning shimolida bu harorat +12C ga va janubida +28C ga teng. Arabiston yarim orolida esa +32Cni tashkil etadi. Qish materikning shimoli-sharqida juda qattiq bo'ladi. Ayniqsa, Sibirda yanvar oyining o'rtacha harorati -40 C gacha pasayadi. Ayrim kunlari bu harorat Oymyakonda -71C ga tushib ketgan. Shuning uchun bu yer Shimoliy yarimsharning sovuqlik qutbi deb ataladi. Qish Yevropaning janubi-g'arbida iliq, Osiyaning janubida esa issiq +20C bo'ladi.

Yer kurrasidagi eng sernam joy ham Yevrosiyoda joylashgan. Eng ko'p yomg'ir yog'adigan joy Himolay tog'larining janubi-sharqiy etagidagi Cherrapunja rayonidir. Bu yerda o'rta hisobda yiliga 12665 mm yog'in yog'adi. 1856 yilda bu yerga 23000 mm ga yaqin yog'in tushgan.

Geografik kenglikning iqlimga ta'siri-Yevrosiyo iqlimining xilma-xil bo'lishiga sabab, materikning shimoldan janubga qarab juda katta kenglikda cho'zilib yotganligidadir. Quruqlikning shimoldan janubga qarab

uzoq masofaga cho'zilganligi issiqlikning taqsimlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Geografik kenglikning iqlimga ta'sirini quydagi misollarda ko'rish mumkin. Yoz oylarida Yevrosiyaning shimoliy tropik va ekvator oralig'ida quosh uzoqdan juda baland ko'ringanligi tufayli havoning harorati ancha yuqori bo'ladi. Shu paytning o'zida esa materikning qutb doirasidan shimol tomonda yer yuzasiga issiqlik janubga nisbatan ikki baravar kam tushadi.

Yevrosiyo iqlimining xilma-xiligi geografik kenglikka bog'liq ekanini iqlim xaritasi yordamida izohlab bering. Qilgan xulosalaringizni qish va yoz oylaridagi havo haroratining ko'rsatgichlari asosida isbotlang. Quyosh nurini geografik kenglik bo'ylab bir tekis tushmaslik sababini tushuntiring. Buning oqibatida iqlimda qanday o'zgarishlar ro'y berishini aytib bering.

Okeanlarning iqlimga ta'siri. Yevrosiyoda iqlim sharoiti faqat kenglik bo'ylab o'zgarib qolmasdan, balki g'arbdan sharqqa tomon ham o'zgaradi. Bunga sabab nima? Iqlimning bunday o'zgarishiga sabab shundaki, yevrosiyo materigining g'arbiy qismi doimo Atlantika okeanidan keladigan iliq va nam dengiz havo massasi tasirida bo'ladi. Natijada, G'arbiy Yevropada yog'in ko'p yog'adi, qish ancha iliq va yoz esa salqin bo'ladi. Bunday iqlim sharoiti, ayniqsa mo'tadil mintaqada yaqqolo'z ifodasini topgan.

Sharqqa borgan sari dengiz havo massasining tarkibida namlikning kamaya borishi natijasida yog'ingarchilik miqdori ham kamayadi iqlimning kontinentalligi orta boradi, yoz oylarining harorati ko'tariladi, qishning harorati esa juda pasayadi, natijada qish va yoz oylarining haroratlari o'rtasida katta farq vujudga keladi.

Materikning sharqiy chekkalarida iqlim yana o'zgaradi. Bunga sabab Tinch okeanidan keladigan dengiz havo massasidir. Lekin bu yerda okean bilan quriklikning o'zaro tasiri Yevrosiyaning g'arbiy qismiga nisbatan masumiy xarakterga ega. Yozda Tinch okeanidan keladigan dengiz havo massasi, ya'ni yozgi musson shamollari o'zi bilan ko'p miqdorda yog'in keltiradi. Qishda materik ustida, ayniqsa Osiyaning katta qismida yuqori havo

bosimi oblasti tarkib topadi, natijada ob-havo quruq va ochiq bo'ladi, yog'ingarchilik kam tushadi, sovuq havo hukmronlik qiladi.

Hindiston va Hindixitoy yarmorollari iqlimga ham musson shamollari tasir etadi. Hind okeanidan esadigan yozgi musson shamollari bu joylarga juda katta miqdorga yog'in keltiradi. Qishda musson shamollari materikdan okeanga esib, shimoliy-sharqiy passat shamollari bilan tutashib, bir xil yo'nalishga ega bo'ladi.

Materikning shimoliy qismi iqlimning shakllanishida shimoliy muz okeanining ham tasiri bor. U yerda hosil bo'lgan sovuq va quruq arktika havo massasi, sharqiy Yevropa, G'arbiy va Sharqiy Sibir o'lkalarining iqlimga kuchli tasir etadi. Bu havo massasi tufayli qishda harorat juda pasayadi, yog'ingarchlik miqdori ham kamayadi.

Reliefning iqlimga ta'siri. Yevrosiyo yer yuzasining tuzulishi ham iqlimning hosil bo'lishiga katta tasir ko'rsatadi. Ayniqsa, baland tog' tizmalari atmosferada harakat qilayotgan iliq va sovuq havo massalarini to'sib qolib iqlimning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday holni Alp, Kavkaz, Tyanshan, Himolay tog'lari misolida ko'rish mumkin. Bu tog' tizmalari g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan bo'lib, ular shimoldan keladigan sovuq shamollarni janubga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun Kavkaz tog'larining shimoliy yon – bag'ri mo'tadil iqlim mintaqasiga va janubiy yonbag'ri subtropik iqlim mintaqasiga qaraydi. Lekin, Atlantika okeanidan keladigan sernam havo massalari to'siqqa uchramay, materikning ichkari qismlariga kirib boradi.

Yevrosiyo tog'lariga iqlim sharoiti balandlik mintaqalari bo'yicha ham o'zgaradi. Balandlik iqlim mintaqalari Alp, Karpat, Kavkaz, Tyanshan, Himolay kabi tog'larda ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Tibet va Pomir tog'laridagi iqlim baland tog' iqlimi bo'lib, ular yozning issiqligi, qishning qattiq sovuqligi va atmosfera yog'inlarining juda kam yog'ishi bilan xarakterlanadi.

YEVROSIYONING IQLIM MINTAQALARI VA IQLIM TIPLARI

Iqlim mintaqalari. Yevrosiyo iqlimining georafik kenglik bo`ylab o`zgarishi iqlim mintaqalarini va iqlim tiplarini vujudga keltiradi. Materikning shimoldan janubga qarab katta masofaga cho`zilganligi tufayli uning iqlim sharoiti juda ham xilma-xil va bu yerda arktika iqlim mintaqasidan tortib, to ekvatorial iqlim mintaqasigacha mavjud.

Arktika iqlim mintaqasi Yevrosiyaning arktikadagi orollarini va quruqlikning Yamal yarim orolidan tortib to Chukotka yarim oroligacha cho`zilgan Shimoliy muz okeaniga tutashib turgan qismini ishg`ol etadi. Bu yerda yil davomida sovuq arktika havo massasi hukmronlik qiladi. Harorat yoz oylarida ham past ($+1^{\circ}$ $+3^{\circ}\text{C}$) bo`ladi, qishda esa qattiq sovuqlar uzoq davom etadi. Yozi juda qisqa bo`lib, qutb quyoshi bir necha bor ufqdan bir oz ko`tarilib turadi va quruqlik yuzasini isita olmaydi. Siklonlar tez-tez takrorlanib turadi.

Subarktika iqlim mintaqasi uncha katta bo`lmagan polosani egallab, Yevrosiyaning g`arbida Skandinaviyaning shimolidan boshlanadi va sharqda to Bering dengizi sohiligacha davom etadi. Subarktika mintaqasida iqlim arktika mintaqasining iqlimiga nibatan bir oz ildiqroq. Yoz oylarida o`rtacha harorat  $+4^{\circ}\text{C}$ dan  $+14^{\circ}\text{C}$ gacha ko`tariladi. Yil davomida sovuq shamollar esib turadi. Atmosfera yog`inlari 200-400 mm atrofida tushadi.

Mo`tadil iqlim mintaqasi Yevrosiyaning eng katta qismini egallab olgan. U g`arbdan Atlantika okeani sohillaridan boshlanib, sharqda Tinch okeani sohillarigacha davom etadi. Mo`tadil mintaqada iqlim sharoitining

shakllanishida Atlantika okeanidan keladigan dengiz havo massasi, materik ichkarisiga tarkib topgan kontinental havo massasi va Tinch okeanidan keladigan musson havosi yetakchi rol o`ynaydi. Shuning uchun bu yerda mo`tadil iqlim mintaqasining dengiz, kontinental va musson iqlim variantlari hosil bo`ladi.

Yevrosiyaning g`rbiy qismida Atlantika okeanidan keladigan illiq havo massalarining ta`siri tufayli qish yumshoq, yoz salqin bo`ladi. Yanvarning o`rtacha harorati 0°C atrofida, iyulniki esa $+15^{\circ}$, $+20^{\circ}$ Cga teng. Yog`ingarchilik yil davomida bo`lib turadi va uning o`rtacha yillik miqdori 1000 mm.dan oshadi. Quyoshli kunlar yozda ham kam bo`ladi, bulutli va yomg`irli kunlar ko`p bo`ladi. Qishda qor kam yog`adi va tez-tez erib ketadi. Iqlimning bunday xususiyatlari mo`tadil mintaqaning dengiz iqlim variantiga xosdir.

Sharqqa borgan sari Atlantika okeanining ta`siri kamaya boradi, iqlimning kontinentalligi orta boradi. Sharqiy Yevropa tekisligida mo`tadil kontinental iqlim hukmronlik qiladi. Yoz oylari iliq, qish oylari sovuq bo`ladi. Ular tog`larga yaqin joylarda qattiq sovuqlar tez-tez takrorlanib turadi. Yanvarning o`rtacha harorati  $-8^{\circ}\text{C}$  dan  $-20^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Qishda ayoqli kunlar iliq kunlar bilan almashinib turadi. Yozda yog`inlar Sharqiy Yevropa tekisligining g`arbida ko`p bo`ladi.

Ural tog`laridan sharqqa mo`tadil mintaqalarning iqlim sharoiti kontinental havo massalariga bog`liq. Yozda yer yuzasi qattiq isiydi, harorat  $+25^{\circ}\text{C}$  gacha ko`tariladi, qishda esa juda soviydi va harorat -50°C - -60°C gacha pasayadi. Dengiz havo massalari bu yerlarga nam keltirmaydi, yog`in 200-300 mm atrofida tushadi. Qishda qor kam yog`adi va qattiq sovuq yer yuzasini ancha chuqurgacha muzlatadi. Bunday xususiyat mo`tadil mintaqasining keskin kontinental iqlim variantiga xosdir.

Mo`tadil mintaqaning sharqiy qismida, Tinch okean sohillarida musson shamollari hukmron. Bu havo massalarining asosiy xususiyati shundan

iboratki, ular fasllarga qarab almashinib turadi va mo'tadil mintaqaning musson iqlim variantini hosil qiladi. Yog'ingarchilir, asosan yoz oylarida bo'ladi, qishda esa aksincha kam tushadi. Musson iqlim faqat mo'tadil iqlim mintaqasida emas, balki supotropik va tropik iqlim mintaqalarida ham mavjud.

Suptropik iqlim mintaqasi materikning g'arbidagi Pireney yarim orolidan to Tinch okean sohilidagi bo'lgan polosani egallab yotardi. Yozda tropik havo va qishda mo'tadil kenglik havo massalari hukmronlik qiladi. Yozda tropik havo tasirida harorat + 30°C +35 °C gacha ko'tariladi, havo ochiq bo'ladi, yomg'ir juda kam tushadi. O'rta dengiz sohillarida qish juda iliq bo'ladi, yomg'ir tez-tez yog'ib turadi, havoning o'rtacha harorati hamma joyda 0°C dan yuqori. Yomg'irni Atlantika okeanidan esadigan g'arbiy nam shamollar keltiradi. Bu supotropik iqlim mintaqasining o'rta dengiz bo'yi iqlimidir. Shuning uchun o'simliklar vegetasiyasi yil davomida to'xtamaydi.

G'aybdan sharqqa materik ichkarisi tomon brogan sari havoning namligi kamayib, kontineltalligi orta boradi. Natijada subtropik mintaqaning o'rta qismida subtropik kontinental iqlim tarkib topadi. Bu yerda yoz juda issiq va quruq, qish esa ancha sovuq bo'ladi. Yog'ingarchilik kam, 100-150 mm atrofida yog'adi. O'rta Osiyo va O'zbekistonning janubiy qismlari ana shunday iqlimga to'g'ri keladi.

Materikning sharqiy Tinch okean sohilidagi subtropik mintaqada mavsumiy shamollar tasirida subtropik musson iqlimi vujudga keladi. Yozda okeandan esadigan havo massalari ko'p miqdorda namgarchilik keltiradi, havo haroratini pasaytiradi. Jala yomg'irlar uzoq davom etishi tufayli daryolar toshadi, ekinzorlarni, qishloqlarni suv bosadi. Qishda esa materikdan esgan shamol haroratni keskin pasaytiradi, yog'ingarchilikni kamaytiradi.

Yevrosiyoaning iqlim mintaqalari xaritasidan tropik, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarni toping. Ulrning xarakterli xususyatlarni aytib

bering. Har qaysi iqlim xillarini aniqlang, ularni xosil bo'lishiga tasir ko'rsatuvchi omillarga tariff bering.

Iqlim tiplari. Yevrosiyaning iqlim tiplari boshqa materiklariga nisbatan o'zining xilma-xilligi bilan farq qiladi. Har qaysi iqlim mintaqasida zonal farqlar tufayli iqlim tiplari hosil bo'ladi. Ularning soni bittadan tortib bir nechttagacha bo'lishi mumkin. Masalan, Artikada iqlim mintaqasida arktik sahrolar iqlim tipi, subartika iqlim mintaqasida tundra va o'rmon- tundra iqlim tiplari bor.

Yevrosiyaning iqlim mintaqalari ichida, iqlim tiplarning rang-barangligi bilan ayniqsa, mo'tadil iqlim mintaqasi ajralib turadi. Uning hududida tayga, aralash o'rmonlar, mussonli aralash o'rmonlar, o'rmon-dasht, dasht, chala cho'l va cho'l iqlim tiplari mavjud. Subtropik iqlim mintaqasi O'rta dengiz bo'yi, nam subtropik, quruq, subtropik va subtropik musson iqlim tiplaridan tashkil topgan. Xuddi shunday tropik, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarning o'ziga xos iqlim tiplari bor.

Yevrosiyaning iqlimining xilma-xilligi kishilarning xo'jalik faoliyatida katta rol o'ynaydi. Iqlim sharoitining qishloq xo'jaligi uchun qulayligi shundaki, u turli xil madaniy o'simliklarni etishtirishda va yuqori hosil olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Materikning shimoliy qismida arktika va subarktika iqlim mintaqalarida issiqlikning etishmasligi tufayli qishloq xo'jalini rivojlantirish juda qiyin. Uning janubiy qismida esa, subtropik va tropik iqlim mintaqalarida haroratning yuqori bo'lishi, issiq kunlarning yil davomida ko'plab takrorlanishi madaniy ekinlardan yiliga 2-3 marta hosil olish imkonini beradi. Lekin kontinental iqlim sharoitida har doim ham inson bunday imkoniyatga ega bo'lavermaydi. Shuning uchun bunday joylarda obikor dehqonchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

KARTA, DIAGRAMMA, DARSLIK VA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib etishida yordam byeradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan.

Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quroldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati qaqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"-deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir. Ta'limning ko'rgazmali vositalarini 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.


1.BOSMA KO'RGAZMALI VOSITALAR

Bularga kartalar, sxemalar, jadvallar, applekatsiyalar misol bo'ladi.

KARTA GEOGRAFIYANING IKKINCHI TILI

«Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda bizda bu o'lkaning tabiiy va iqlim mintaqalari kartasi hamda Dunyoning tabiiy va iqlim kartasi kerak bo'ladi. O'quvchilarga o'lkaning tabiiy tuzilishi va iqlim xususiyatlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi geografik tarixi, o'lkadagi iqlim mintaqalar, daryo va yirik kollar, yirik tog'lar, yirik cho'llar va transport yo'llarini alohida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadi.

Sxemalar. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda o'lkaning tabiiy va iqlim xususiyatlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri kartasini xamda o'lkaning asrlar davomidagi geografik tarixi chizmasini o'quvchilarga chizib ko'rsatsak, ularning tassovurlari, bilimlari ancha shakllanadi.



Jadvallar. Geografiyada muhim ahamiyatga ega. Jadvallar asosan statistik bilimlar asosida tuziladi. Indeks, koeffitsient va boshqalarni bilish turli va boy mazmunli jadvallar tuzish mumkin. Uni tuzishning muhim sharti asosan eng yangi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Diagrammalar. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar orqali Yevrosiyo materigining iqlimi, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi geografik tarixi, aholining milliy tarkibi, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohalarining ulushini ifodalash mumkin.

2. TA'LIMNING EKRANLI VOSITALARI.

Bunga ekranli statistik vositalar va ekranli vositalar misol bo'la oladi. Bu vositalar ham darsning qiziharli, muvoffaqiyatli chiqishiga imkon byeradi. «Yevrosiyo materigining iqlimi» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda uning kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, iqlim mintaqalari, iqlim zonalari, iqlim o'lkalari, iqlim rayonlari haqidagi filmlarni imkonicha vaqt topib o'quvchilarga ko'rsatish ham samarali natija byeradi.

3. TA'LIMNING OVOZLI VOSITALARI.

1. Gramplastinkalar

2. Magnitafon yozuvlari

3. Kompyutyerlar

hozirgi vaqtda o'quvchilarning informatsiyalarini qabul qilish manbalari ko'payib bormoqda.

Radio va televizion axborot vositalari, kompyuter texnikasi, intyernet tarmoqlari orqali masofali ta'lim berish, bunda mavzu o'rganilayotganda

o'quvchilardan ular ko'rgan, eshitgan ma'lumotlari so'raladi. O'quvchilarning darslik bilan ishlashi geografiya ta'limi jarayonida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar qajmi va me'yorini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan havaslarini oshiradi. Har bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana olishga o'rgatish lozim.

Geografiya o'qituvchisi darsga ko'rgazmali qurollarsiz kirishi hech qanday samara bermaydi. Shuning uchun har bir yangi mavzu o'tilishidan oldin o'qituvchi o'sha mavzuga tegishli ko'rgazma vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Ziyoda dars yutug' o'qituvchining yutug'i, dars kamchiligi uning kamchiligidir.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH VA UYGA VAZIFA BERISH

Mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Darsda o'rganilgan mavzu mustahkamlab borilmasa o'rganilgan bilim o'quvchilar xotirasidan ko'tarilib ketadi. Mustahkamlash o'quvchi nutqini o'stiradi va bir qancha yo'l olib boriladi.

Dastlabki mustahkamlash. Bunda odatda yangi material o'rganib bo'lingach dars oxirida o'tkaziladi. Mustahkamlash yangi materialni o'rganish bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin. Dastlabki mustahkamlash, darslik va karta bilan ishlash, daftarga yozish, yozuvsiz kartani to'ldirish kabi o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari tarzida olib boriladi. Mavzu bunday usulda mustahkamlanganda yangi o'rganilgan mavzuni ilgari o'rganilgan mavzuni taqoslash yaxshi natija beradi. Mustahkamlashning

yana bir yo'li takrorlash. Takrorlash darsning hamma qismida olib borish mumkin.«Yevrosiyo materiginingiqlimi» mavzusi o`rgatish o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega. Har bir mavzu tushintirilib bo'lgach dars yakunlanishi arafasida mavzuni mustahkamlab olish kerak.Bu usul bilan o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlari sinaladi.

Uyga vazifa: mavzuni o`qib kelish va atlasdan foydalanib Yevrosiyo materigining iqlim mintaqalarini yozuvsiz kartada tushirish, meva shakllarini yasab, uning orqasiga Yevrosiyo materigi iqlimidan savollar tuzib kelish.

XULOSA

Tabiiy va iqtisodiy geografiya ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib, mustaqil mamlakatlarining qudratini yanada mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda.

O'quv jarayonida u yosh avlodga Yevrosiyo materigining o'ziga xos iqlimi va iqlim mintaqalarini, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, haroratning o'zgarishi, shamollar, tabiiy resursi, havo namligi va havo bosimining hududiy jiqatlarini, dunyo iqlim kartasi orqali iqlimning o'zgarib borishini o'rganishga yordam beradi. Nazariy va amaliy yo'nalishda esa mazkur fan Yevrosiyo materigining o'ziga xos iqlimi va iqlim mintaqalari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, haroratning o'zgarishi, shamollar, tabiiy resursi, havo namligi va havo bosimining hududiy jiqatlarini, iqlim mintaqalarining joylashtirish bilan bog'liq muammolarini hamda Dunyo iqlim kartasi holati, ijtimoiy ekologiya kabi muhim masalalarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

Men malakaviy bitiruv ishimda «Yevrosiyo materigining iqlimi», uning o'ziga xos iqlimi va iqlim mintaqalari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, haroratning o'zgarishi, shamollar, tabiiy resursi, havo namligi va havo bosimining hududiy jiqatlarini, iqlim mintaqalarining joylashtirish bilan bog'liq muammolarini va uni o'qitish usullariga katta ahamiyat berdim.

Shuningdek birinchidan, ilgari Dunyo iqlim kartasidagi materikning holati va uning boshqa regionlarga, mamlakat o'lkalarida bo'lgan iqlim mintaqalarida bo'lgan e'tibor haqidagi bilimlarni. Buning oqibatida materikning turli qismlarida yashovchilar o'z yurtiga ko'ra o'zganing iqlim

xususiyatlarini yaxshiroq bilar edilar. Bundan Yevrosiyo materigi ham mustasno emas. Hozirgi iqlim tahlilini davlatlar va hatto yirik materiklar darajasiga tushunish kerak. Yevrosiyo materigining iqlimini dunyo nuqtai nazaridagina emas, balki jahonning materiklari nuqtai nazaridan o'rganilishi kerak.

Ikkinchidan, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi har holda geografik fanlar tizimiga kiradi. Ammo darslikda Yevrosiyo materigining iqlimi, uning o'ziga xos iqlimiy xususiyatlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, haroratning o'zgarishi, shamollar, tabiiy resursi, havo namligi va havo bosimining hududiy jiqatlarini, iqlim mintaqalarining joylashtirish bilan bog'liq muammolarini va uni o'qitish usullariga katta ahamiyat berilgan. Vaholanki bu fan umumiy geografik mazmunga ega bo'lgan qonuniyat va kategoriya, zonallik, azonallik, komplekslilik, regionallik, geotizim, rayonlashtirish va boshqa tabiiy va notabiiy, ya'ni ijtimoiy geografiyaning nazariy uslubiy jiqatdan bir biriga mustahkam bog'laydi. Men malakaviy bitiruv ishimda bu jihatlarga ham e'tibor berdim.

Uchinchidan, bizga ma'lumki tabiiy va iqtisodiy geografiyada sof va aniq tabiiy va iqtisodiy bilimlarga, statistikaga e'tibor, ancha bo'shashgan. Menimcha, geografiya o'qituvchisi ham tabiiy va iqtisodiy geografiyani ham Amaliy geografiyani mukammal bilishi kerak. Bu uning eng muhim betakror xususiyati, asosiy mazmun, moqiyat vamaqsadidir. Dars jarayonida statistika asosida tuzilgan jadval, sxema, diagramma, dars maqsadiga etishishda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, biz yaxshi bilamizki geografiyaga doim mukammal va mustahkam fan sifatida emas, oddiy o'quv fani sifatida qarash odat tusiga kirib qolgan. Bu hol maktab geografiyasiga xosdir. Shu masalani hal etish uchun geografiya fani va uni o'rganish ob'ektlariga o'quvchilarni qiziqishi

ortishiga olib kelishi mumkin. Geografiya ham matematika, ona tili, tarix kabi fanlar qatoriga olib chiqishi kerak.

Beshinchidan, geografiyani asosiy fanlar qatoriga olib chiqish uchun ko'b tadqiqotlar olib borilishi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda makroiqtisodiy emas, mikro iqtisodiy masalalar tadqiq etiladi. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarni aniqligi yuqoridir. Shuning uchun ham global va regional fikrlab lokal masshtabda amal qilish maqsadga muvofiqdir. «Evrosiyo materigining iqlimi» uning o'ziga xos geografik o'rni va tekshirish tarixi, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalar, haroratning o'zgarishi, shamollar, tabiiy resursi, havo namligi va havo bosimining hududiy jiqatlarini, iqlim mintaqalarining joylashtirish bilan bog'liq muammolarini va uni o'qitish usullariga katta aamiyat berilgan, tabiiy hodisalarni o'quvchi o'rganishi uchun uch soatgina vaqt ajratilgan, bu albatta, bu hududni o'rganish, chuqur tahlil qilish imkonini byermaydi. Ayniqsa, bu o'lkada yashovchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmaydi.

Oltinchidan, men dastur tuzuvchilarga quyidagi maslaqatlarimni bergan bo'lardim: har bir tabiiy va iqtisodiy o'lka uch yoki to'rt soatdan o'tilsa ham o'quvchi yashayotgan tabiiy va iqtisodiy o'lka yoki viloyat kamida besh soatdan o'tilishi lozim. Buning uchun maxsus tabiiy va iqtisodiy o'lka xaqidagi qo'llanmalar, darslik sifatidagi kitoblar tayyorlanishi kerak. Bunda har bir tabiiy va iqtisodiy o'lkani tashkil etgan viloyat uning tumanlari yirik shaharlariga aloqida to'xtalib o'tish o'quvchi yashayotgan zaminni yanada chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Ettinchidan. Biz materiklarni o'rganishda, "Evropacha" qarash va qolipdan uzoqda keta olmaymiz. Ma'lumki «Yevrosiyo materiginingiqlimi», uning o'ziga xos iqlim xususiyatlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalari, havo harorati, havo bosimi va namlikning hamda

shamollarning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. To'g'ri «Yevrosiyo materigining iqlimi», uning o'ziga xos iqlim xususiyatlarga, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalari, Evrosiyodagi havo harorati, namligi, bosimi ko'rsatkichini, ya'ni mintaqalar iqlimi ulushini rivojlangan mamlakatlarning 80-90% darajasida bashorat qilish haqiqatdan ancha yiroq. Ammo bu Yevrosiyoda iqlim o'zgarishi jarayoni mavjud emas degan xulosaga kelish noto'g'ri. Aksincha, Yevrosiyo mintaqalarida mavjud. Biroq uning tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa xususiyatlari Yevrosiyo materigidagi mintaqalarinikidan tubdan farq qilishinio'quvchilarga taqlil qilib berish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yevrosiyo materigidagi mintaqalarining iqlim xususiyatlari, uning o'ziga xos iqlim o'zgarishlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalarini o'quvchilarga o'rgatishda iqlim mintaqalari xususiyatlariga aloqida etibor berish kerak. Yevrosiyo materigi iqlimlarini asosan yangi hududlar iqlimiga qiyoslash, ular yangi iqlimlashgan XXI asrda shaklangan, faqat boshqa iqlimlarigina azaldan ma'lum.

Sakkizinchidan. Geografiya fani jumladan, boshqa fanlar aloqadorlikda olib borilishi kerak. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning yana bir omili uning ichki salohiyatidan boshqa fanlar bilan aloqadorlikda olib borilishi kerak. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning yana bir omili uning ichki salohiyati boshqa fanlar bilan qo'shnichiyalik mavqeidan to'laroq foydalanishi xisoblanadi. Men «Yevrosiyo materigining iqlimi», uning o'ziga xos iqlim xususiyatlari, kashfiyotchilar tomonidan qilingan ishlar, taraqqiyotlar davri, o'lkaning asrlar davomidagi iqlim o'zgarishlari, tabiiy hodisalarini o'qitish metodikasini malakaviy bitiruv ishimda yozib, shunga amin bo'ldimki, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya-demografiya, tarix, etnografiya, tibbiyot, ququq, siyosat, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan chambarchas boqliq ekan. Ammo

“narigi qirkoq”ga o’tib ketmasligi uchun geografiya o’qituvchisi hududiylik, regionallik, komplekslilik hususiyatlariga asoslanishi kerak.

To’qqizinchidan. Mavzu o’rganilib bo’lgach, uning tabiati, iqlimi va iqlim xususiyatlari, ekologiyasi haqida o’quvchilarga qisqacha ma’lumot berib o’tilishi lozim. Bizga ma’lumki 20 asrning oxirgi yillarigacha inson mehnat jarayonida tabiiy muqit katta miqyosda turli o’zgarishlarga uchramagan tabiatni komponentlari orasidagi o’zaro munosobatlari va ta’sirlari ko’p yillar mobaynida deyarli urganimagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.T. "O'zbekiston" 1999 yil.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 yil.
4. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Т., – 2006.
5. Ziyomuhamedov B. Abdullayeva Sh. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent 2000
6. Eshmuhamedov Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008
7. Усмонов А.И. Замонавий ахборот технологиялари асослари. Т., 2007 йил.
8. Musaev P. O'zbekiston geografiyasini o'qitish T. "O'qituvchi" 1979 yil.
9. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar.T. "O'qituvchi" 1986 yil.
10. Babanskiy. Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T. "O'qituvchi" 1990 yil.
11. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar T. "O'qituvchi" 1990 yil.
12. Musaev P. va boshqalar. Geografiya- materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, 6 sinf darsligi., T., «O'qituvchi», 1996 yil.
13. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T. "O'zbekiston" 1997 yil.
14. Qurbonniyozov R. O'zbekiston geografiyasi T. "O'qituvchi" 1997 yil.
15. Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, T., «O'qituvchi», 1998 yil.

16. O'zbekiston milliy intsiklopediyasi T. 1999 yil.
17. O'zbekiston milliy intsiklopediyasi T. 2005 yil.
18. Saotov A., Abduqosimov A. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, T., «O'qituvchi», 2005 yil.
19. Maktabda geografiya-ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal, 10(22)-son, 2010 yil.
20. Maktabda geografiya-ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal, 3(51)-son, 2013 yil